



## PROBLEMS OF TEACHING APPLIED ART LESSONS IN SPECIALIZED ART SCHOOLS

Dolimov Valijon Muhammadyoqubjonovich <sup>1</sup>

<sup>1</sup> Namangan State University

Master of Fine Arts and Applied Decorative Arts

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4731007>

### ARTICLE INFO

Received: 20<sup>th</sup> April 2021

Accepted: 25<sup>th</sup> April 2021

Online: 30<sup>th</sup> April 2021

### KEY WORDS

Sports, culture, arts and crafts, folk arts, modern times, carpets, suzana, patnis, theater, film music, fine arts.

### ABSTRACT

*The problems of teaching applied art classes in specialized art schools, how clear and perfect the applied art classes are, ensure the strength of children's thinking processes - analysis and synthesis, logical thinking, inference. There are many types of applied arts, such as artistic decoration, wood and plaster carving, works of decorative art, painting, and children can choose according to their wishes and interests.*

## IXTISOSLASHTIRILGAN SAN'AT MAKTABLARIDA AMALIY SAN'AT DARSLARINI O'QITISH MUAMOLARI

Dolimov Valijon Muhammadyoqubjonovich <sup>1</sup>

<sup>1</sup> Namangan Davlat Universiteti

Tasviriy san'at va amaliy bezak san'ati magistranti

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20-aprel 2021

Ma'qullandi: 25-aprel 2021

Chop etildi: 30-aprel 2021

### KALIT SO'ZLAR

Sport, madaniy, Amaliy-bezak, Xalq amaliy san'ati, hozirgi davr, gilam, so'zana, patnis, teatr, kino musiqa, tasviriy san'at.

### ANNOTATSIYA

*Ixtisoslashtirilgan san'at maktablarida amaliy san'at darslarini o'qitish muamolari, amaliy san'at darslarini qanchalik aniq va mukammal bo'lishi, bolalar tafakkurining – analiz va sintez, mantiqiy fikrlash, xulosa chiqarish jarayonlarining kuchli bo'lishini ta'minlaydi. amaliy san'atning badiiy bezak, yog'och va ganch o'ymakorligi, dekorativ san'ati asarlari, naqqoshlik kabi ko'plab turlari mavjud bo'lib bolalar xohishi va qiziqishiga qarab tanlashlari mumkin.*

Amaliy – badiiy bezak san'ati-san'atning teatr, kino musiqa, tasviriy san'at turlari qatori mustaqil ahamiyat kasb etadi. U o'z nomiga ko'ra amaliyotda, ya'ni turmushda qo'llaniladigan bezak san'ati ma'nosini anglatadi. Amaliy-badiiy bezak

san'ati turli xil buyumlar, ko'chalar, maydonlar, istirohat bog'lari, ishlab chiqarish korxonalarini, o'quv – tarbiyaviy muassasalar, sport va madaniy inshootlarni bezatish bilan bog'liqdir. Shuningdek, u kiyim-kechaklar, zargarlik buyumlari bezagini ham o'z ichiga



oladi. Amaliy-bezak san'ati kishilar turmushida shunchalik keng qo'llaniladiki, u siz turmushni tasavvur etish qiyin.

Shunday qilib, amaliy san'at buyumlari ularning vazifasi, shakli, bezagi, materiali, rangi o'lchovlariga rioya qilishni talab etadi. Shundagina, bu buyumlar kishilarni hayajonlantiradi, to'lqinlantiradi va ularga zavq bag'ishlaydi.

Xalq amaliy san'ati o'quvchilarda badiiy didni o'stirish bilan bir qatorda, ularga borliqni idrok etishni va unga estetik munosabatda bo'lishni shakllantiradi: O'quvchilarning badiiy moyiliklarini amaliy jihatdan to'g'ri yo'naltirish ularga keyinchalik shu jihozlarni, kiyim kechaklarni to'g'ri tashkil etishda, qadimda va 8 hozirgi badiiy bezak amaliy san'at asarlarining estetik mohiyatini tushunib olishida ko'maklashadi. O'quvchilarni xalq ustalari ijodidagi badiiy bezak obrazlari bilan tanishtirish borliqqa estetik munosabatini o'stirishda yordam beradi.

O'quvchilarni xalq amaliy san'atini idrok etishlari va borliqqa estetik munosabatlarini o'stirish uchun quyidagi tushuncha va ma'lumotlarga ega bo'lishlari kerak: - Xalq amaliy san'atlarini turlari: unda ishlatiladigan asbob va materillar, qo'llaniladigan usullarni bilish; - Xalq badiiy bezak va amaliy san'atida oid ma'lum terminlarni bilish; - o'tmish va hozirgi xalq amaliy san'ati ustalarini bilish; yuqori badiiy saviyada ishlagan va mamlakatimiz hamda shuningdek, chet ellarda saqlanayotgan xalq amaliy san'ati bilan bog'liq bo'lgan asarlarni bilish:

- O'tmish va hozirgi davrlarda O'zbekistonda mavjud, bo'lgan xalq amaliy san'ati bilan yirik tarixiy va madaniy yodgorliklarini bilish:

- Ijtimoiy foydali ishlarga va shuningdek chet ellarda turmushda xalq amaliy san'atidan foydalana bilish.

Xalq amaliy san'atini o'rganish voqealarining tasviriy, ijodiy faoliyatlarida ham katta ahamiyatga ega. Masalan o'quvchilar avvalgi xalq hayoti bilan bog'liq, bo'lgan mavzuda jumladan, uy jihozlari (gilam, so'zana, patnis, lagan, tovoq, choynak, piyola, choy idish, sandiq, quti, hum xontaxta va boshqalar) kiyim kechaklar: - to'n, ko'ylak, do'ppi, qiyiq, tillaqosh, etik, ro'mol, va boshqalar.

Yog'och va ganch o'ymakorligida buyumlarini tasvirlashda xalq amaliy san'atidan olgan bilim va tushunchalari qo'l keladi. Xalq amaliy san'atidan olib boriladigan suhbatlar amaliy san'atni turlarini ketma-ketlik asosida tushuntirib berishdan iborat bo'lishi o'quv samaradorligini oshirishi mumkin. Xalq amaliy san'atining keng tarqalgan turlaridan biri badiiy bezak amaliy san'atidir. Bu san'at insoniyat hayotida ishlatiladigan buyumlar: - idish tovoq, kiyim-kechak, gilam, mebel buyumlari, o'yinchoqlar va shu kabilarni bezatishda ishlatiladi.

Dekorativ san'ati asarlari odamlarning kundalik turmush ehtiyojlarini qondirish, tevarak atrofga, bog'larga uylarning tashqi va ichki ko'rinishlariga go'zallik kiritish uchun qo'llaniladi. Bu san'at o'zining xalq ehtiyojida moslaganligi bilan farq qiladi. Dekorativ amaliy san'atda real narsalar aks etishi mumkin, lekin ular mustaqil xarakterga ega bo'lmay balki, ma'lum bir buyum shakli va mazmuni bilan bog'liq bo'ladi: Dekorativ amaliy san'at buyumlari birmuncha erkin san'atkor fantaziyasida bog'liq holda yaratiladi: va eng avvalo atrofga go'zallik kiritishda qaratiladi. - Masalan jimjimador ustun, eshik va darvozalar, turli naqsh va bo'rtma tasvirlar bunga misol bo'la oladi.

Ixtisoslashtirilgan san'at maktablarida amaliy bezak san'atini o'qitishda bir qancha muammolar mavjud bo'lib, ularni bartaraf etishga doir izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan



,ganchkorlik, naqqoshlik ,yog'och o'ymakorligi kabi amaliy san'at turlarini o'rgatish o'qituvchidan matonat va mehnatni talab etsa o'rganuvchidan esa sabr va mashaqqatni talab etadi. Shuningdek amaliy bezak san'atini o'qitishda bazi qiyinchiliklar mavjud. Birinchidan, yakka kishi hech qachon amaliy bezak san'atining hamma turlarini to'liq o'zlashtira olmaydi. Lekin, umumiy darajada tanishish shaxsning yuqori madaniy darajaga erishuvida zarur shartdir. Bundan kelib chiqadiki, ushbu san'atlarni o'rgatish ikki xil shaklda amalga oshirilishi mumkin: umumiy nazariy ma'lumotlarga ega bo'lish yoki biror turini amaliy jihatdan to'liq egallash.

Ikkinchidan, har bir murabbiy — usta o'zi

chuqur egallagan san'at turini shogirdlariga chuqur o'rgatish bilan cheklanishi mumkin.

Uchinchidan, har turli mahalliy sharoitlardan kelib chiqqan holda ushbu san'atlarning u yoki bu turi bo'yicha mashg'ulotlar tashkil etishda tanlash uchun keng imkoniyatlar mavjud. Lekin har qanday bilim va hunar o'rganishdan asosiy maqsad kelgusida amaliy, zarur vazifalarni hal etishga qaratilishi lozim. Dars mashg'ulotlarida o'quvchilar bajaradigan har turli topshiriqlar ularning botanika, biologiya, tarix, adabiyot va boshqa fan sohalaridagi bilimlaridan foydalanishni taqozo etadi, ya'ni bu mashg'ulotlarda predmetlararo bog'lanishni hisobga olish zarur.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov. I.A. «Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari» kitobi. T.: 2009 yil. «Bu muqaddas Vatanda azizdir inson. – T: «O'zbekiston», 2010 y.
2. A. Sulaymonov. Sharq miniatyura san'ati. Toshkent. 2005 yil.
3. A. Sulaymonov, N. Abdullayev Tasviriy san'at 7- sinf o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent- 2002 yil. 52
4. Amaliy san'at qisqacha lug'ati. Qomuslar bosh tahririyati. Toshkent. 1992 y
5. Barkamol avlod – kelajagimiz tayanchi. – T: «Ma'naviyat», 2010 y. 6. Bulatov S., A. Dadashev. Naqsh alifbosi Toshkent. 2005 y.